

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 221 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSİYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhaxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	



GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI

Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich

Iqtisodiyot va moliya kafedrası dotsenti
Qo'qon universiteti Andijon filiali

Annotatsiya: Maqolada globalizatsiya jarayonlari va ularning milliy iqtisodiyotga ta'siri nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotining jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvi, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion va raqamli texnologiyalarning o'rni, shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyalari ilmiy asosda o'rganilgan. Tadqiqot natijalari globalizatsiyaning O'zbekiston uchun keng imkoniyatlar yaratishini, barqaror rivojlanishning asosiy sharti sifatida milliy manfaatlarni himoya qilish va innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish zarurligini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: globalizatsiya, milliy iqtisodiyot, xalqaro integratsiya, tashqi savdo, raqamli iqtisodiyot, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy xavfsizlik, milliy manfaat, xalqaro moliya.

Abstract: The article analyzes globalization processes and their impact on the national economy from both theoretical and practical perspectives. It also examines Uzbekistan's integration into the global economy, the role of innovation and digital technologies in ensuring national competitiveness, and strategies for maintaining economic security. The research results demonstrate that globalization creates broad opportunities for Uzbekistan, emphasizing the need to protect national interests and develop an innovative economy as key conditions for sustainable growth.

Key words: globalization, national economy, international integration, foreign trade, digital economy, innovative development, economic security, national interests, international finance.

Аннотация: В статье теоретически и практически проанализированы процессы глобализации и их влияние на национальную экономику. Рассмотрена интеграция экономики Узбекистана в мировое хозяйство, роль инновационных и цифровых технологий в обеспечении конкурентоспособности, а также стратегии поддержания экономической безопасности. Результаты исследования показывают, что глобализация создаёт широкие возможности для Узбекистана, подчёркивая необходимость защиты национальных интересов и развития инновационной экономики как основы устойчивого роста.

Ключевые слова: глобализация, национальная экономика, международная интеграция, внешняя торговля, цифровая экономика, инновационное развитие, экономическая безопасность, национальные интересы, международные финансы.

KIRISH

Globalizatsiya bugungi zamonaviy davrning eng keng qamrovli va murakkab jarayonlaridan biri hisoblanadi. U iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan holda davlatlar va xalqlarning o'zaro bog'liqligini kuchaytiradi. Ilmiy adabiyotlarda globalizatsiya — bu dunyo miqyosida xo'jalik aloqalarining kengayishi, bozorlarning birlashuvi, kapital va texnologiyalarning erkin harakat qilishi jarayoni sifatida ta'riflanadi. Globalizatsiyaning asosiy xususiyatlariga xalqaro savdoning jadal sur'atlar bilan kengayishi, kapital oqimining chegaralarsiz harakati, axborot va raqamli texnologiyalarning tezkor rivoji, mehnat resurslarining xalqaro miqyosda harakatchanligi hamda jahon miqyosida yagona iqtisodiy makon shakllanishi kiradi.

Globalizatsiya bosqichlari quyidagicha tasniflanadi. Dastlabki bosqich (XVI–XIX asrlar) — Buyuk geografik kashfiyotlar va xalqaro savdoning kengayishi bilan tavsiflanadi. Industrial bosqich (XIX–XX asrlar) — sanoat inqilobi, temiryo'l va paroxodlarning rivoji hamda xalqaro moliya tizimining shakllanishi davri hisoblanadi. Zamonaviy bosqich (XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr) esa transmilliy korporatsiyalar, xalqaro tashkilotlar (WTO, IMF, WB), internet va raqamli iqtisodiyot asosida globallashuv jarayonining chuqurlashuvi bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, globalizatsiya jarayoni natijasida milliy iqtisodiyotlar o'zaro chuqur integratsiyaga kirishmoqda. Shu bilan birga, ayrim hollarda milliy iqtisodiy manfaatlar global manfaatlarga zid bo'lib, iqtisodiy xavfsizlikka tahdid tug'dirishi mumkin. Milliy iqtisodiyot — bu muayyan mamlakat hududida mavjud ishlab



chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol qilish tizimining yaxlit majmuasidir. U mamlakatning iqtisodiy mustaqilligi, barqarorligi va ijtimoiy farovonligining asosi hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Globalizatsiya jarayoni milliy iqtisodiyot nazariyasining shakllanishi va rivojlanishida tub o'zgarishlar yasadi. Bu jarayon nafaqat tashqi iqtisodiy aloqalar kengayishini, balki milliy iqtisodiy tizimlarning o'zaro bog'liqligini kuchaytirgan holda, ularning ichki barqarorligi, siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi va innovatsion salohiyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Global integratsiyaning ijobiy jihatlarini yoritgan tadqiqotchilar orasida Jagdish Bhagwati alohida o'rin tutadi. U 2004-yilda chop etilgan "In Defense of Globalization" asarida xalqaro savdo va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi natijasida iqtisodiy samaradorlik ortishini asoslab beradi. Bhagwati fikricha, ochiq iqtisodiyot modeli resurslarning erkin harakatini ta'minlab, milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshiradi va ijtimoiy farovonlikni kuchaytiradi.

Biroq globalizatsiyaning har doim ham ijobiy natija beravermasligini ta'kidlagan olimlar ham mavjud. Joseph Stiglitz o'zining 2002-yilda nashr etilgan "Globalization and Its Discontents" asarida xalqaro moliyaviy institutlar siyosati rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirganini qayd etadi. U global integratsiya jarayonining muvozanatli rivojlanishi uchun institutsional islohotlar, ijtimoiy himoya tizimlarini kengaytirish va bosqichma-bosqich ochiqlik siyosatini yuritish zarurligini ilgari suradi. Dani Rodrik esa 2011-yilda chop etilgan "The Globalization Paradox" asarida global iqtisodiy tizimning barqaror ishlashi uchun davlat, bozor va demokratiya o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, har bir mamlakat global bozor talablariga moslashar ekan, o'z milliy siyosatini mustaqil yuritish imkoniyatini yo'qotmasligi lozim.

Nazariy jihatdan Paul Krugmanning "Geography and Trade" (1991) asari globalizatsiya va milliy iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro ta'sirni hududiy va tarmoq tuzilmalari orqali tahlil qilgan eng muhim ishlardan biridir. U ishlab chiqarishning geografik konsentratsiyasi, miqyos iqtisodiyoti va transport xarajatlari milliy iqtisodiy siyosatga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur o'rganadi. Krugman ishlab chiqargan "core-periphery" modeli globalizatsiya jarayonida ayrim mamlakatlarning iqtisodiy markazga aylanishi, boshqalarning esa periferiyada qolish xavfini nazariy jihatdan asoslaydi.

Mazkur yondashuvlar uyg'un holda milliy iqtisodiyot nazariyasini yanada chuqurlashtiradi. Global integratsiyaning afzalliklarini inkor etmagan holda, olimlar milliy siyosatning moslashuvchanligini ta'minlashni, iqtisodiy suverenitetni saqlashni va institutsional barqarorlikni mustahkamlashni zarur deb hisoblaydilar. Shu bois global jarayonlarga moslashish jarayonida har bir mamlakat o'z iqtisodiy modelini ishlab chiqishi, milliy manfaatlarni himoya qiluvchi mexanizmlarni yaratishi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan strategiyalarni amalga oshirishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va milliy statistika ma'lumotlari tahlil qilindi. Ma'lumotlar qiyosiy va statistik usullar orqali qayta ishlanib, globalizatsiya jarayonining milliy iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash maqsadida analitik yondashuv qo'llandi hamda mavjud empirik dalillar asosida nazariy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Milliy iqtisodiyotning asosiy kategoriyalariga milliy daromad, ya'ni mamlakat hududida yaratilgan yalpi iqtisodiy boylik; iqtisodiy mustaqillik — davlatning o'z iqtisodiy siyosatini mustaqil yuritish qobiliyati; milliy manfaat — xalqning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlash; hamda milliy xavfsizlik — tashqi va ichki tahdidlardan iqtisodiy tizimni himoya qilish kiradi.

Milliy iqtisodiyot tamoyillari barqarorlik, raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va ijtimoiy yo'naltirilganlik tamoyillarini o'z ichiga oladi. Barqarorlik tamoyili ichki iqtisodiy muvozanatni saqlashni, raqobatbardoshlik tamoyili xalqaro bozor sharoitida milliy mahsulot va xizmatlarning sifatini ta'minlashni, innovatsion rivojlanish tamoyili texnologik yangiliklardan samarali foydalanishni, ijtimoiy yo'naltirilganlik tamoyili esa iqtisodiy o'sishning asosiy maqsadini inson manfaatlarini ta'minlash deb belgilaydi.

Milliy iqtisodiyot nazariyasi shuni ko'rsatadiki, globallashtirish jarayonida iqtisodiy siyosat milliy manfaatlarni saqlash va tashqi integratsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanishga qaratilishi kerak. Globalizatsiya milliy iqtisodiyotga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy ta'sirlar orasida xorijiy investitsiyalar oqimi alohida o'rin tutadi — kapitalning erkin harakati milliy iqtisodiyotga yangi moliyaviy resurslar kirib kelishiga olib keladi. Shu bilan birga, bu jarayon tashqi qarzdorlikning ortishi xavfini ham keltirib chiqaradi.

Texnologik rivojlanish global bozor orqali ilg'or texnologiyalarni jalb qilish imkonini beradi va milliy ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, biroq texnologiyalarga yuqori darajada qaramlik xavfini ham yuzaga



keltiradi. Mehnat migratsiyasi global mehnat bozoriga integratsiya jarayonida kadrlar yetishmovchiligi yoki “miyalar oqimi” muammosini keltirib chiqarishi mumkin. Moliyaviy integratsiya xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi, biroq moliyaviy inqirozlarning milliy iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytiradi. Iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan esa milliy ishlab chiqarishning global kompaniyalarga qaramligi xavf tug'diradi. Shu sababli importni cheklash, eksportni diversifikatsiya qilish va strategik sohalarda milliy mustaqillikni ta'minlash muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng milliy iqtisodiyotda tub islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, xorijiy investorlar uchun qulay sharoit yaratish va xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. O'zbekistonning globallashuv jarayonidagi asosiy qadamlariga Jahon savdo tashkilotiga (WTO) a'zo bo'lish bo'yicha faol muzokaralar olib borish, xalqaro moliya institutlari (IMF, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki) bilan hamkorlikni rivojlantirish, mintaqaviy hamkorlik tashkilotlari (MDH, OTS, SHHT) bilan iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda eksport geografiasini Markaziy Osiyo, MDH, Yevropa va Osiyo mamlakatlari bilan kengaytirish kiradi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi (2020–2024 yy., mlrd. AQSH doll.)

YIL	EKSPORT	IMPORT	SAVDO AYLANMASI	SALDO
2020	15,1	21,5	36,6	-6,4
2021	16,6	25,2	41,8	-8,6
2022	19,3	28,1	47,4	-8,8
2023	21,9	31,6	53,5	-9,7
2024	25,7	33,4	59,1	-7,7

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonning tashqi savdo hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Shu bilan birga, import ustunligi hali ham yuqori bo'lib, bu holat milliy iqtisodiyotda import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Globalizatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri — raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanishdir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar xalqaro savdoda ham, moliya tizimida ham muhim rol o'ynamoqda.

Raqamli iqtisodiyotning milliy iqtisodiyotdagi asosiy afzalliklariga elektron tijorat va onlayn savdoning kengayishi, raqamli to'lov tizimlari (Payme, Click, Humo, Uzcard, Visa, MasterCard integratsiyasi), davlat boshqaruvida raqamli yechimlar (e-hukumat, elektron soliq va bojxona tizimlari), startaplar va IT-parklarning rivoji, shuningdek, “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kiradi.

Globalizatsiya sharoitida milliy iqtisodiyot nafaqat integratsiya jarayonlaridan foyda oladi, balki turli tashqi xatar va tahdidlarga ham duch keladi. Shu sababli milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining asosiy vazifasiga aylanadi. Milliy iqtisodiyot xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari quyidagilardan iborat: import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali aholini zarur oziq-ovqat va sanoat mahsulotlari bilan ichki ishlab chiqarish hisobidan ta'minlash; eksportni diversifikatsiya qilish, ya'ni asosan xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o'tish; energiya xavfsizligini mustahkamlash, buning uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish va energiya samaradorligini oshirish; moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, tashqi qarzdorlikni boshqarish va milliy valyuta barqarorligini saqlash; ekologik barqaror ishlab chiqarish hamda “yashil texnologiyalar”ni joriy etishga asoslangan yashil iqtisodiyot strategiyasini amalga oshirish.

Masalan, O'zbekistonda 2021–2024-yillarda quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirildi. Bu milliy energetika xavfsizligini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi. Shunday qilib, globallashuv jarayonlari O'zbekiston iqtisodiyotiga keng imkoniyatlar ochmoqda: yangi bozorlar, xorijiy investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb qilish imkoniyati. Shu bilan birga, importga yuqori darajadagi qaramlik, tashqi qarzdorlik va geosiyosiy beqarorlik milliy iqtisodiyot xavfsizligiga tahdid solmoqda. Shuning uchun barqaror rivojlanish strategiyasi diversifikatsiya, innovatsion rivojlanish va milliy manfaatlarni himoya qilish bilan uzviy bog'liqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Globalizatsiya jarayonlari bugungi kunda jahon xo'jaligining asosiy xususiyatiga aylanib, barcha davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur maqolada globalizatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotning nazariy asoslari va uning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari ilmiy jihatdan



o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nazariy jihatdan globalizatsiya — bu tovar, xizmat, kapital, mehnat resurslari va axborotning jahon bo'ylab erkin harakati asosida milliy iqtisodiyotlarning yagona global tizimga integratsiyalashuv jarayonidir. Milliy iqtisodiyot esa o'zining iqtisodiy mustaqilligi, milliy manfaatlari va xavfsizlik tamoyillari asosida global tizimda o'z o'rnini topishi lozim.

Amaliy jihatdan O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan boshlab jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv jarayonida faol ishtirok etib kelmoqda. So'nggi yillarda tashqi savdo hajmi keskin oshdi, eksport geografiyasi kengaydi, IT-xizmatlar eksporti barqaror o'smoqda. Shu bilan birga, import ustunligi, tashqi qarzdorlikning ortishi va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar ham mavjud.

Innovatsion rivojlanish va raqamli transformatsiya milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida xizmat qilmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida IT-parklar, elektron tijorat, startaplar va yangi texnologiyalarning joriy etilishi milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligida munosib o'rin egallashiga yordam bermoqda. Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot xavfsizligini ta'minlash masalasi global sharoitda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarish, eksportni diversifikatsiya qilish, energetika xavfsizligini ta'minlash va yashil iqtisodiyot strategiyasini amalga oshirish barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishlaridir.

Umuman olganda, globalizatsiya O'zbekiston uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda: xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi bozorlarni egallash va ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilish, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash va barqaror o'sishni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifasi bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Krugman P., Obstfeld M. International Economics: Theory and Policy. – Pearson, 2021.
2. Stiglitz J. Globalization and Its Discontents. – W.W. Norton & Company, 2024.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – www.stat.uz
4. Xolboev A., Xasanov B. Iqtisodiyot nazariyasi. 2-n. – T.: Fan, 2024.
5. Turdiyev M. S. (2025). Economic Development in Uzbekistan// Основы экономики. МГУ. – С. 122-129.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari (2020–2024 yy.).
7. Rodrik D. The Globalization Paradox: Democracy and the Future of the World Economy. – W.W. Norton, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
